hamda 223-moddalariga asosan moliyaviy jarima
qo’llanilgani aniqlandi.

Shuningdek, tuman davlat soliq inspeksiysi to-
monidan tekshiruv o’tkazilishi jarayonida tegishli

protsessual harakatlar noto’g’ri amalga oshirilgani
hamda Prezidentimizning 2021-yil 29-iyundagi
“Davlat organlari va tashkilotlari yuridik xizmat
ko’rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish cho-
ra-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga amal qilmaslik
holatlari aniqlandi.

Tuman adliya bo’limi tomonidan Toshkent
shahar davlat soliq boshqarmasi rahbari nomi-
ga “Mirahmat ota” MChJga nisbatan qo’llanilgan
qonunbuzilishlarni bartaraf etish yuzasidan ta’sir
chorasi kiritilishi natijasida tadbirdorning buzilgan
huquqlari tiklandi.

Otabek NEGMATOV,
Yunusobod tuman adliya bo’limi boshlig'i

SIRDARYO

“Guliston metan savdo” MChJ hamda Guliston
shahar obodonlashtirish, ko’kalamzorlashtirish va
irrigatsiya boshqarmasi o’tasida 2021-yil 15-yan-
varda siqilgan gaz yetkazib berish bo’yicha shart-
nomasi tuzilgan bo’lib, unga ko’ra, MChJ umumiy
narxi 36 million so’mlik, 2022-yil 19-oktabrdagi esa
umumiy narxi 20 million so’m bo’lgan mahsulot
yetkazib berishi, boshqarma esa iste’molchi sifa-
tida to’lovni amalga oshirishi lozim edi.

Biroq obodonlashtirish, ko’kalamzorlashtirish
va irrigatsiya boshqarmasi shartnoma majburiyat-
larini “unutdi”. Avtotransport vositalariga uning ta-

labi bo’yicha siqilgan tabiiy gaz yetkazib berilgan
bo’lsa-da, to’lov paysalga solindi.

MChJ rahbarining shartnomaviy munosabat-
larga oid ushbu mazmundagi murojaati Guliston
shahar adliya bo’limi tomonidan o’rganildi. Ma’lum
bo’lishicha, shahar obodonlashtirish, ko’kalamzor-
lashtirish va irrigatsiya boshqarmasi shartnoma
shartlarini bajarmasdan, qabul qilib olingan tabiiy
gaz haqini o’z vaqtida to’lab bermagan. Da’vo-
garning ogohlantirish xatlari ham oqibatsiz qoldi-
rilgan. Natijada javobgarning da’vogar oldida 20
million 241 ming 700,10 so’m qarzorligi vujudga
kelgan. Ushbu holatlар tarafda o’tasida tuzilgan
shartnoma, ishonchnomma, hisob-faktura, solishtir-
ma dalolatnomma hamda ishdagi mavjud boshqa
hujjatlarda ham o’z isbotini topdi.

Yuqoridaqilarga asosan, adliya bo’limi tomoni-
dan MChJ manfaatida Guliston tumanlararo iqtis-
odiy sudiga da’vo arizasi kiritildi. Sudning hal
qiluv qarori bilan boshqarma hisobidan MChJ foy-
dasiga 20 million 241 ming 700,10 so’m qarzorlik
undirilishi belgilandi.

Safarboy TOG’AYEV,
Guliston shahar adliya bo’limi boshlig'i

**Bola 2 yoshga
to’lgunga
qadar...**

- Ishlayotgan ayolga ham
bolani parvarishlash uchun oylik
nafaqa to’lanadimi?

- Ishlaydigan onalarga bola ikki yoshga yet-
gunga qadar uni parvarish qilgani uchun har oylik
nafaqa tayinlash va to’lash tartibi to’g’risidi
nizomni tasdiqlash haqida”gi mehnat va moliya
vazirlarining qarori bilan tasdiqlangan Nizom ish-
lovchi onalarga oylik nafaqa tug’ilgan, farzandlikka,
vasiylikka olingan bolani 2 yoshga to’lgunga qadar
parvarish qilish uchun qoida tariqasida onaga, ota-
ga, farzandlikka, vasiylikka olgan shaxslarga yoki
boshqa qarindoshlarga tayinlash va to’lashni tar-
tibga soladi.

“Ishlovchi onalarga bola ikki yoshga to’lgunga
qadar bola parvarishi bo’yicha oylik nafaqa ta-
yinlash va to’lash tartibi to’g’risida”gi Nizomning
6-bandiga ko’ra, ishlovchi onalar (onanoring o’rnini
bosuvchi shaxslar) to’liq bo’lmagan ish vaqtini rejimida
yoki ish beruvchi bilan kelishib, uydai ishlayot-
gan vaqt uchun bola parvarishi bo’yicha nafaqa va
ish haqini bir vaqtida olish huquqiga ega.

Mehnat kodeksining 186, 258-moddalariga
ko’ra, to’liqsiz ish vaqtini shartlarida ishlaganda xo-
dimning mehnatiga haq to’lash u ishlab bergan
vaqtga mutanosib ravishda yoki u bajargan ishning
hajmiga qarab amalga oshiriladi. Demak, budget-
dan tashqari tashkilotlarda ishlovchi onalar to’liq-
siz ish vaqtini (0.25, 0.5, 0.75 stavka)da ishlasa ish
haqini mutanosib ravishda, nafaqani esa to’liq 588
ming so’m olishi mumkin.

Mavzuna ISMOILOVA,
G’ijduvon tuman adliya bo’limi FHDY bo’limi
mas’ul xodimi

SURXONDARYO

**Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2002-yil 1-apreldagi 21-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan “Davlat ijtimoiy sug’urtasi bo’yicha nafaqalar tayinlash va to’lash tartibi to’g’risidi” Nizom”da vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davrida na-
faqa to’lanmaydigan holatlari o’z aksini topgan.**

MEHNATGA QOBILIYATSIZLIK nafaqasini to’lash QACHON TO’XTATILADI?



berilgan qo’shimcha ta’til davrida na-
faqa to’lanmaydi.

Qayd etish lozimki, ushbu davrlarda
boshlanib, davom etayotgan mehnat-
ga qobiliyatsizlik nafaqasi xodim ishga
chiqishi (lavozimga tiklanishi) lozim
bo’lgan kundan boshlab beriladi.

Bundan tashqari, vaqtincha mehnat-
ga qibiliyatsizlik nafaqasi ishdan yoki
boshqa vazifalardan bo’yin tovlassh

maqsadida o’z salomatligiga ataylab
ziyon yetkazgan yoxud o’zini kasallik-
ka solganda, giyohvandlik yoki mast-
lik bilan bog’liq harakatlar oqibatida,
shuningdek, spirtili va giyohvandlik
moddalarini iste’mol qilish natijasida
kasallikka chalinganda (jarohatlangan-
da), jinoyat sodir qilish vaqtida jarohat-
langanda, sud qarori asosida majburiy
davolanishga yuborilganda (ruhiy
kasallardan tashqari), hibsdan bo’lgan
davrda; sud-tibbiyot ekspertizasidan
o’tish davrida berilmaydi.

Shuningdek, vaqtincha mehnat-
ga qobiliyatsizlik nafaqasi Ijtimoiy
ahamiyatga ega bo’lgan kasalliklar
(sil kasalligi, onkologiya kasalliklari,
yangidan paydo bo’ladigan xatarli
o’simtalar, jinsiy yo’l bilan o’tadi-
gan kasalliklar, SPID, moxov (lepra)
kasalligi, ruhiy kasalliklari) bo’yicha
hisobda turgan xodimlarga ular
umumiy ish stajining davomiyligi
ga bog’liq ravishda to’lanadi. Xusu-
san, umumiy ish staji 8 yil va undan
ortiq bo’lgan xodimlarga ish haqini-
ning 100 foizi miqdorida, umumiy
ish staji 5 yildan 8 yilgacha bo’lgan
xodimlarga ish haqining 80 foizi
miqdorida hamda umumiy ish staji
5 yilgacha bo’lgan xodimlarga ish
haqining 60 foizi miqdorida to’lanadi.

Ammo quyidagilarga vaqtincha
mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish
stajining davomiyligidan qat’i nazar ish
haqining 100 foizi miqdorida to’lanadi:

- bayalminal jangchilarga va
ularga tenglashtirilgan boshqa
shaxslarga;
- qaramog’ida 16 yoshga (o’quv-
chilar 18 yoshga) yetmagan uch
yoki undan ortiq bolalari bo’lgan
xodimlarga;

- Chernobil AESdagagi avariya oq-
batlarini tugatishda qatnashgan
xodimlarga;
- Chernobil AESdagagi avariya
natijasida radioaktiv ifloslanish
zonasidan evakuatsiya qilingan
va ko’chirilgan, qon hosil qiluv-
chi organlar kasalliklari (ot’kir-
leykoz), qalqonsimon bez (ade-
noma,rak) va xavfli o’smalar bilan
bog’liq kasalliklarga chalingan
xodimlarga hamda mehnatda
mayiblanish, kasb kasalligi nat-
ijasida vaqtincha mehnatga qo-
biliyatsiz bo’lgan xodimlarga.


- Abduxoliq ABDIRAHIMOV,
Boysun tuman adliya bo’limi yuridik
xizmat ko’rsatish markazi bosh
yuriskonsulti

6 SUD ZALIDAN

ALIMENT KAMAYTIRILISHI YOKI KO'PAYTIRILISHI MUMKIN

Illi nafar bolamga aliment to'layman. Sobiq xotinim bir-ikki marta alimentni o'z vaqtida to'lolmaganim uchun menga taqiq qo'yidigan. Mashinamni garovga qo'yib, taqiqni oldirsam bo'ladi?

Javlon HOSHIMOV,
Toshkent shahri



Oila kodeksining 96-moddasiga asosan voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyor ravishda bajarmagan ota (ona) dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iqa asosan aliment undiriladi.

Mazkur kodeksning 99-moddasiga asosan agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-onasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun sud tomonidan ota-onaning har oydagisi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun – to'rtib dan bir qismi; ikki bola uchun – uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun – yarmisi miqdorida aliment undiriladi. Bu to'lovnинг miqdori tarafalarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'limasligi kerak.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-oktabrda qarori bilan tasdiqlangan "Alimentlarni oldindan to'lash, shuningdek, aliment to'lash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzish tartibi to'g'risida"gi nizomning 27-bandiga asosan alimentlarni to'lash majburiyatini garov bilan ta'minlash yo'lli bilan ijro hujjatini ijo etish usuli va tartibini o'zgartirish to'g'risidagi ariza qarzdar tomonidan ijo hujjatini bergan suda taqdim qilinadi. Nizomning 29-bandiga ko'ra, garov shartnomasi qarzdar va undiruvchi o'rtaida aliment to'lash majburiyatini garov bilan ta'minlash va aliment majburiyatlarini ikki oydan ortiq muddat davomida bajarilmagan taqdirda undiruvchiga undiruvni garov predmetiga qaratish huquqini berish uchun tuziladi.

Ushbu nizomning 31-bandiga asosan aliment to'lash majburiyatini garov bilan ta'minlash to'g'risidagi garov shartnomasi notarial tartibda tasdiqlanadi. Nizomning 32-bandiga asosan aliment to'lash majburiyatini garov bilan ta'minlashda garov qiymati qonunchilikda belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ellik baravaridan kam bo'limasligi lozim. Nizomning 36-bandiga asosan qarzdorning ijo hujjatini ijo etish usuli va tartibini aliment to'lash majburiyatini garov bilan ta'minlashga o'zgartirish to'g'risidagi arizasi sud tomonidan qarolarni ijo etish usuli va tartibini o'zgartirish bo'yicha fuqarolik protsessual qonunchiligidagi belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlar tabrlariga ko'ra, aliment to'lash majburiyatlarini garov bilan ta'minlashningiz mumkin.

Savolga fuqarolik ishlari bo'yicha
Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudi sudyasi
Mavluda BOBORAIMOVA javob berdi

Qo'qon shahrida yashovchi Z. Topvoldiyeva (barcha ism-shariflar o'zgartirilgan) o'zining shar'iy nikohdagi xo'jayini O. Davlatjonov va farzandlikka oлган 19 yoshli qizi Sh. Topvoldiyevalar bilan birga tovlamachilikka qo'l urdi.

Yurishadi.

Ammo shundan keyin Sobirning boshi g'ala vaga tiqlidi. Aniqrog'i, Zarifa, Otobek va Shohida Sobirga nisbatan tovlamachilik qila boshlashadi.

– Ijaraga uy topib berdim, deb qizimning nomusini bulg'absiz-da, yigit? Yaxshilikcha Shohidaga uylaning. Aksincha, oilangizni buzb, sharmandangizni chiqaraman yoki xotiningizning yoniga qizimni ham o'tirgizib kelaman, – deb shallaqilik qiladi Z. Topvoldiyeva.

– Nimalar deyapsiz? Men qizingizni zo'rlaganim yo'q, – deya Shohida o'z roziligi bilan ko'ngilxushlik qilganini tushuntirmoqchi bo'ladi S. Hojiahmedov.

Biroq "qayonna" bo'l mish uning gapini eshitishni ham xohlasmaydi.

Onasidan so'ng esa Sh. Topvoldiyevaning o'zi Sobirga qo'ng'iroq qiladi. Ya'ni, qiz yigitdan o'ziga uylanishini yoki 500 AQSh dollarri berishini talab qiladi. Aks holda ota-onasi, rafiqasi va bola-chaqasiga o'talaridagi ishqiy munosabatni aytib, mahalla-ko'y oldida ham sharmanda qilishini bildiradi kinoyali ohanga.

– O'sha pulni bersam, meni tinch qo'yasizlarmi?, – deydi S. Hojiahmedov chorasisiz qolgach.

– Ha, keyin oramiz ochiq siz bilan.

Shundan keyin S. Hojiahmedov pul qidirish o'rniiga bo'lib o'tgan holat yuzasidan Qo'qon shahar II Bga ariza bilan murojaat qiladi. Pirovardida 2023-yil 22-avgust kuni ayni murojaat bo'yicha tezkor tadbir o'tkaziladi.

– Besh yuz dollar topolmadim. Hozir uch yuz dollar olib keldim, – deydi S. Hojiahmedov qizga sim qoqib.

Saat 12:30larda Shohida o'gay otasi bilan birga belgilangan manzilga – shaharning Chorsu dashasidagi jome masjidini yoniga yetib keladi. Ota-bola Sobirdan 300 AQSh dollarri hisobidan 3 million 600 ming so'm naqd pulni olayotgan paytda ushlanadi. So'ngra tovlamachi er-xotin va ularning qiziga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atiladi. Jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi tovlamachilarni Jinoyat kodeksining 165-moddasi 2-qismi "v" bandi bilan aybli deb topib, O. Davlatjonovni ozodzilidan mahrum qilish, ona-bola Topvoldiyevalarni esa axloq tuzatish ishi jazosiga mahkum etdi.

Nodirjon KIMSANOV,
jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudi
sudyasi

AMALGA OSHMAGAN TOVLAMACHILIK

Garchi Otobek Shohidaga otalik qilib kelsa-da, o'z otasi bo'lмагани bois qiz undan begonasirab ulg'ayadi. Shu bois, so'nggi paytlarda Shohida onasi va o'gay otasi bilan tez-tez janjallashib qolaveradi.

2023-yil 17-iyul kuni ham shunday bo'la-di. Kechqurun ota-onasi bilan tortishib qolgan Shohida zarda qilib, udan chiqib ketadi. Ertasi kuni esa shahardagi tungi klublarning biridan qo'nim topadi. U mazkur ko'ng'il ochish maskanida Uychi tumanida yashovchi fuqaro S. Hojiahmedov bilan tanishib qoladi.

Gap shundaki, o'sha paytda S. Hojiahmedov Dang'ara tumanida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgandi. Binobarin, kechqurun tungi klubga kelgan edi. Sh. Topvoldiyeva unga o'zini "Sabina" deya tanishiradi.

– Qayerda yashaysan?, – so'raydi Sobir tanishuvdan keyin qizdan.

– Shu yerdaman, Lekin udan chiqib ketganman, – deydi Shohida.

– Iye, nega?, – hayron bo'ladi yigit.


– Ota-onam bilan janjallashib qoldim.

So'ngra "mijozi" dan iltimos qiladi:

– Menga ijara yashash uchun uy topishga yordam bering.

Buni qarangki, qizning ayni iltimosi boyadan beri undan ko'zini uzolmay o'tirgan Sobirga juda xush yoqadi.

Darhaqiqat, tanishuvining ilk daqiqalari dirdanoq Shohida bilan ko'ngilxushlik qilishni mo'ljalagan S. Hojiahmedov ertasigayog shaharning Abu Toib Ho'qandiyo ko'chasiagi ko'p qavatlari uylarning biridan ijara xonodon topadi. Keyin "oshiq" va "ma'shuq" ushbu xononda ayshu ishrat qilib, o'n besh kuncha yashab



TO'LAMAGAN USTAMA UCHUN SUD QAROR CHIQARDI

Narpaylik fuqaro I. Toshniyozovga 2021-yilning aprel oyidan ustama puli to'lanmay keltingan. Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'liming bu noqonuniy ishi kun kelib oshkor bo'lishi mas'ullarning xayoliga ham kelmagandir.


Fuqaroning murojaati asosida tuman adliya bo'limi tomonidan olib borilgan o'rganishlar afsuski o'z tasdig'ini topdi.

Prezidentimizning 2018-yil 19-fevraldagagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining 7-bandiga asosan davlat organlari va boshqa budget tashkilotlarning zamonaliv axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy qilish va rivojlantirishga mas'ul bo'lgan xodimlariga beriladigan har oylik ustama miqdori davlat budgetidan, agar davlat budgetidan ajaratilmagan bo'lsa, ushbu tashkilotlarning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan xodim lavozim maoshidan 100 foizdan kam bo'lмагan miqdorda belgilanadi.

Ustamani undirish yuzasidan adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Kattaqo'r'g'on tumanlararo sudiga da'vo arizasi kirtildi. Sud tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'liming fuqaroga 81 million 993 ming 700 so'm miqdoridagi ish haqidani mavjud qarzdorlikni, ya'ni ustama to'lashi haqida qaror qabul qildi.

Muhiddin TOSHNURODOV,
Narpay tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

Kriminal xatti-harakatlarini amalga oshirishda til asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Turli verbal va noverbal muloqot shakllarida jinoiy xatti-harakatlarni sodir etish yoki unga da'vat qilish va o'z qilmishini yashirish mumkin. Bunday holatlarda matn ifoda etilgan tilning lingistik xususiyatlarni chucher bilish hamda obyektiv yondashish talab etiladi.



KONFLIKTLI MATNLARDA

implikatsion mazmun tahlili



Aksariyat holatlarda ekspert matn vaziyati, nutq aktiga muvofiq gipotezaga asoslangan xulosa berishga majbur bo'ladi. Bu esa, ayblanuvchining jiddiy e'tiroziga sabab bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga asosan aytish mumkini, konfliktli matnlarda kriminalistik jihatdan javobgarlikka tortishsha asos bo'luchchi holatlar mavjudligini asoslash uchun matnda q'llangan so'zlarning kontekstual va konseptual ma'nolarini aniqlash zarurati paydo bo'ladi. Implikatsiya aytildigan fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifodalmasdan yashirish, ishora qilish orqali tushuntiradi. Sharq xalqlari madaniyatida tag ma'no, qochirimlar, istehzo orqali fikrni bayon etish uslubi mavjud.

Odatda har bir gap o'ziga xos ma'noga ega. Nutqning bu ma'nosi Grice tomonidan implikatum deb ataladi, keyinchalik u tabibiy bo'limgan ma'no atmasi bilan ifodalanadi. Ko'rsatkichlar implikatsiya deb ataladi.

Nominal ravishda, bu atama niyat, tushunish yoki ishtirot etishni anglatuvchi implikatsiya so'zi bilan bog'liqidir. Pragmatika va nutqni o'rganishda implikatsiya suhbata ishtirot etadigan narsani anglatadi. Bundan tashqari, implikatsiya nutqning mantiqiy yakuni, so'zlovchi va tinglovchi o'rtaсидagi umumiy bilish fonidir.

“

Argo [frants. argot – jargon] – ma'lum toifa kishilargagina tushunlar so'zlar mavjudligi bilan umumxalq tilidan farq qiluvchi, biror ijtimoiy toifa, guruhlarga xos yasama til.

Quyidagi dialoglarda buni ko'rish mumkin:

Y.: – Ikkita qog'oz tayyorlab qo'syin, ikkita "karam".

X.: – Siz shuni yetkazishing, men olib beraman... kabi suhabat jarayonida ikki erkak kishining o'zaro bo'lib o'tgan og'zaki nutqi aks etgan.

Ushbu og'zaki nutq jarayonida "ikkita qog'oz tayyorlab qo'syin, ikkita "karam" ko'rinishdagi argo biror ijtimoiy toifa, guruhlarga xos yasama til orqali "ikkita qog'oz" – qimmatba-

ho boylik, mablag' ma'nosida implitsit, verbal shaklda – ma'lumotlar ma'nosi yashiringan, yopiq shaklda ifodalangan. "Karam" yashil rangli bo'lgani sababli, xalq tilida AQSH dollariqa qiyoslanadi va bu o'xshatish orqali pulga ishora qilinadi.

Lingistik tahlil natijasida matnda shaxslar o'rtasida o'zaro bo'lib o'tgan og'zaki nutq jarayonida shartli ravishda "X" deb belgilangan ishtirotchi tomonidan "Qancha?" savoliga, shartli ravishda "F" deb belgilangan ishtirotchi tomonidan "... elliqta, best ming dollar..." deya tasdiqlovchi jumlalari mablag', pul ma'nosida bayon qilingan, yoki "Aytigan kopiyalarini olib keluvdi, 50 varqaq" ko'rinishidagi argo orqali jumlalari qimmatba-ho boylik, mablag', pul ma'nosida implitsit jumlalarga ishora qilingan.

Demak, implikatsiya aytigan va nazarda tutilgan narsa o'rtaсидagi farqni ko'rsatadi. Bu farqlar suhbata bilinmaydi. Uchinchi shaxs ushbu suhbatni tushunmasligi mumkin. Biroq muloqot ishtirotchilariga oldindan ma'lum bo'lgan "kalit so'zlar" orqali muayyan bir shaxs, narsa predmet, hodisaga ishora qilinadi. Implitsit ma'noring ifodalananida argolar muhim o'rinn tutadi.

Nilufar NAJMIDINOVA,
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza
markazi davlat sud eksperti

E'LONLAR

Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 11-yanvardagi 9-um-soni buyrug'i bilan Zangiota tumaniida xususiy notarial amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abrorov Azizbek Samiyevich boshqa haq to'lanadigan ishga tayinlangani munosabati bilan unga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi TS 0016-sonli litsenziyaning amal qilishi va notarius maqomi tugatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 5-yanvardagi 1-um-soni buyrug'i bilan "AVAZBEK KARIMOV" advokatlik byurosi advokati Karimov Avaz Djumabayevichga Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2023-yil 6-noyabrdagi berilgan №156040-raqamli advokat-

li faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi avokat vaqot etganligi sababli tugatildi.

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2024-yilning 8-yanvar kuni "Nurkulov Bobir himoyasi" advokatlik byurosi advokati Nurkulov Bobir Raxmankulovichga 2022-yil 9-sentabrda berilgan KS 000296-son advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda advokatlik maqomi tugatildi.

Toshkent viloyat ma'muriy sudi apellasiya insansiyasining 2023-yil 21-dekabrdagi qaroriga asosan "OMAR AMIR DEFENCE" advokatlik byurosi advokati Yuldashev G'ulomjon Gayrat-

jonovichning advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 11-yanvardagi 14-um-soni buyrug'i asosan Gulamov Rasuljan Kutibillyayevichga 2018-yil 21-dekabrdagi berilgan AN 000114 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya, advokat Xolmatov Shakhat Nematovichga 2022-yil 6-sentabrda berilgan AN 000386 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya hamda advokat Umarova Margubaxon Ab-

dulxayernaga 2023-yil 4-noyabrdagi berilgan L-7066304 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

Namangan tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 11-noyabrdagi hal qiluv qaroriga asosan (5-1601-2304/985-sonli ish bo'yicha) "Solidarity" advokatlar hay'ati advokat Ganiyev G'ofirjon Axmadjonovichga 2022-yil 27-iyul kuni berilgan L-70663567-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi boshqarmasining 2024-yil 23-yanvar kungi 22-um-soni buyrug'i bilan 2024-yilning 11-apreliiga qadar bo'lgan davrga to'xtatildi.

Ma'lum bir mamlakat yoki mintaqada iste'molchilar orasida yuqori e'tirof va obro' qozongan belgi hammaga ma'lum tovar belgisidir. Yuqori sifatli mahsulot yoki xizmatlar bilan bog'liq bu belgi ro'yxatdan o'tkazish jarayonida o'z egasiga qo'shimcha himoya va imtiyozlar beradi.

HAMMAGA MA'LUM TOVAR BELGISI

**BU
QANDAY
BELGI?**



O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avustag'dagi "Tovar belgilar, xizmat ko'rsatish belgilar va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonunining 322-moddasida hammaga ma'lum tovar belgisini huquqiy muhofaza qilish tartibi belgilangan. Buning uchun qonunchilikda belgilangan tartibda Adliya vazirligi appellatsiya kengashining qarori asosida huquqiy muhofaza beriladi. Huquqiy muhofaza muddatsiz amal qiladi. Ya'ni, ushbu tovar belgilarini bir marta ro'yxatdan o'tkazish uning muddatsiz huquqiy muhofaza qilinishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday belgiga oid ma'lumotlar vazirlikning rasmiy veb-saytida joylashtirilagan rasmiy axborotnomasida e'lon qilinadi.

Albatta, hammaga ma'lum tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishning bir nechta o'ziga xosilklari va afzalliklari mavjud. Qonunchilikka muvofiq, tovar belgisiga doir guvohnoma yoki tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalananish huquqi to'g'risidagi guvohnoma talabnomasi berilgan sanadan e'tiboran o'n yil mobaynida amal qiladi. Yoki uning amal qilish muddati guvohnoma amal qilayotgan oxirgi yil mobaynida berilgan arizaga binoan har safar o'n yilga uzaytilishi mumkin.

Hammaga ma'lum tovar belgisiga ega bo'lish bozorda – raqobatda ustunlikni ham ta'minlaydi. Taniqli tovar belgisi raqobatchilarning bozorga kirishini qiyinlashtirib, ulardan ajralib turadi va bozorda alohida o'ringa ega bo'ladi.

Adliya vazirligining appellatsiya kengashiga taqdim etiladigan appellatsiyalar, ariza va unga ilova qilinadigan materiallar hammaga ma'lum tovar belgisining e'tirof etilganini tasdiqlaydigan aniq ma'lumotlardan iborat bo'lishi kerak. Bunda tovar belgisidan mamlakatimiz hududida keng foydalananilgan haqida, tovar belgisidan foydalananilgan holida tovarlar realitsiya qilingan aholi punktlarining ro'yxati, realitsiya hajmi, yarmarka va ko'rgazmalarida tovar belgisidan foydalananilgan mahsulotlar yoki xizmatlar reklamasi hamda taqdimotini ham hisobga olgan holda tovar belgisidan foydalananish usuli, tovar iste'molchilarining o'rta tashkili, tovar belgisi mashhur bo'lgan mamlakatlar haqidagi ma'lumotlar e'tiborga olinadi.

Sanjar TURSUNOV,
Adliya vazirligi Intellektual mulkni huquqiy himoya qilish boshqarma katta maslahatchisi

8 ORAMIZDAGI ODAMLAR

© Davomi. Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston endigina o'z mustaqiligini qo'lg'a kiritib, siyosiy jarayonlar avj olgan bir paytda mamlakatda sud, prokuratora, xavfsizlik xizmati, ichki ishlar, boringki, barcha sohalar sobiq "sho'ro" hukumatining qonun-qoidalari asosida ishlashtga majbur bo'lgan murakkab yillard edi. Chunki, mavjud konstitutsiyadan tortib qonunlar va amaldagi kodekslarning barchasida sobiq ittifoqning manfaatlari ko'zlangan edi. Bosh qomus – Konstitutsiyaning yozilishidagi komissiya a'zosi sifatida sudlar to'g'risidagi bobga bevosita rahbarlik qilish, sudlar to'g'risidagi qonun loyihasining tayyorlanishi va qabul qilinishi, bir nechta kodekslar ishlab chiqilib hayotga tabbiq etilishi, Oliy sud raisi Ubaydulla Mingboyevning chekiga tushdi. Qilingan mehnat va tortigan mashaqqatlarning samarasini qonunlar qabul qilingandan va xalq manfaati yo'lida xizmat qilib, ijobjiy natijalar bera boshlaganidan keyingina ko'zga tashlandi.

VIJDON VA BURCH NOTASI

Sudyalik lavozimining eng yugori rutbasiga munosib ko'rigan Ubaydulla Mingboyev Oliy suddan tortib chekka hududlardagi tuman sudlarigacha bir xilda adolat o'rnatalishiga harakat qildi. Sudylarni xalq tanli boshladidi, hattoki, odamlar sud tomonidan qabul qilin-gan qarorlar, ajrimlar va hukmlardan rozi ekanini ayta boshladidi. Bu katta ishonch edi, albatta. Sud tom ma'nda fuqarolar himoyachisiga aylandi. Davlat rahbarining taqdimmomasiga asosan qayta-qayta uch marotaba Oliy sud rahbarligiga saylangan Ubaydulla Mingboyev xalqimiz va davlat oldidagi burchini vijdona bajardi. Yuzlab hamkasblari va shogirdlari uning jasorat ko'rsatib, yetmish yillik istibbold davrida qatag'onga uchragan vatandoshlarimizning oqlanishida bosh-qosh bo'lganini imyon keltir-gandek hal-hanuz ta'kidlashadi. Ubaydulla Mingboyevning Oliy sud raisi bo'lgan davrda amalga oshirgan ishlari hozir ham har kuni tilga olinadi. Nazar tashlaydigan bo'sak, faoliyat davomida halollik va poklikni adolat negiziga aylantirgan, yonidigilarni ham shunga undagan, sudylar va sud xodimlarini har qanday tazyiqlар dan asrab-avaylagan ustoz ularni eng avvalo, qing'ir yo'lga yurmaslikka da'vat etgan. "Agarda, hech kimga bildirmsandan biror bir nojoiz ishni qilish maqsadida onunqa qarshi bormoqchi bo'sangiz, zudlik bilan ortingizga qarang. U yerda Ubaydulla Qurbonovich turgan bo'ladi!" deb yugori notada gapiradi. Ushbu mulohazaning o'ziyoq agarda tizimda imoni sust sudylar bor bo'lsa, ularni chaqmoq urgandek seskantirib faqat



KASBGA BAXSHIDA UMR

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist Ubaydulla Mingboyev haqiqatlari

qonun yo'lidan yurishga majbur etadi. Ha, Ubaydulla Qurbonovich ana shunday adolatli karvonga sarbon bo'lishga qodir inson.

Bunday e'tirofga loyiq bo'lish uchun esa, albatta, uzoq bosib o'tilgan yo'llar Shayxontohur tuman ichki ishlar bo'limining tergovchisi, Ichki ishlar vazirligining tergov boshqarmasi bosh tergovchisi, Surxonaryo viloyat sudining sudysi, viloyat sudi raisining jinoyat ishlari bo'yicha o'rinosari, Oliy sud sudyasi, Buxoro viloyat sudining raisi, Oliy sud sudyasi – jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atining raisi, Toshkent shahar sudining raisi lavozimlarida ishlagan vaqtlarida orttirgan tajribasi qo'l kelgan, desak mobulag' bo'lmaydi.

Beminatt xizmatlar o'z samarasini ko'rsatdi. Quyidan eng yuqorigacha bo'lgan yo'lini bosib o'tgan mohir yurist "Oliy malaka darajasiga ega bo'lgan sudy" va "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi. Haqiqat talabgori bo'lgan xalqning ham e'tirofi xuddi shunday edi.

KO'NGLIDA ADOLAT, SO'ZIDA HIKMAT

Odil sudlovnii amalga oshirish yo'li-da bor bilimi va tajribasini baxshida et-gan Ubaydulla Qurbonovich Oliy sud raisi lavozimidan nafaqaga kuzatilgan bo'lsa-da, kasbiga sadoqati tufayli yana xizmatga bel bog'ladi. O'tgan o'nesh yil mobaynida O'zbekiston Sud-yalari assotsiatsiyasiga rahbarlik qildi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimidagi islohotlar davri kechmoqda. Diqqat bilan e'tibor qaratsa ziyrak kuzatuvchi siyosiy jarayonlarda ta'limming, tizimlarning isloh qilinishini anglaydi. Insonning o'zini o'zi isloh qilishini Ubaydulla Mingboyevda ko'rib, u kishining yaratuvchanlik, yo'qdan bor qilish, kelajakni ko'ra olish qobiliyatiga tan berasisiz. Tasdiq uchun fakt keltirish joiz bo'lsa, Ubaydulla Mingboyevning o'ttizdan ortiq takliflari 2017-yilda Yurtboshimizning virtual qabulxonasiga, Prezident devoniga, Vazirlar Mahkamasiga yuborilganini va aksariyat qabul qilinayotgan farmon va qarorlarda o'z aksini topganini ta'kidlash mumkin. Albatta, sohaga oid salmoqli ishlarni amalga oshirgan U. Mingboyevga Prezidentimiz tomonidan yana bir mas'uliyatlari vazifa yuklatildi. Ustoz 2018-yilning 29-iyunida Oliy Majlis Senatingin qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining raisi lavozimiga saylandi. Ustoz bu yerda ham ikki yildan ortiqroq vaqt mobaynida ishlab, kasbiga sadoqatli bo'lgan adolatparvar va vatanparvar sudyalarining lavozimlarga tayinilishida bosh-qosh bo'ldi.

TO'QSONINCHI BEKAT

Mustaqil O'zbekiston Oliy sudining birinchi raisi sifatida tarixga muhrangan Vatanga sadoqatli yurist Ubaydulla Mingboyev muborak sakson besh yoshni qarshi oldi. Biroq, o'zi hozir to'qson yoshlar dovoniga yaqinlashib qolganini ta'kidlaydi. Sababi, tug'ilganlik haqidagi guvohnomani yettingchi sindfa o'qiyotganida maktabga kelgan tekshiruvchilar U. Mingboyevning bo'yibasti, vazni va tashqi ko'rinishiga qarab taxminiy zoqib bergan ekan. Shunda ularning to'rt yilga adashishi ustozni 1935-yilda emas, 1939-yilda tug'ilgan deb qayd etilishiga sabab bo'lgan.

Ustoz butun umrini adolat yo'liga bag'ishlagan benazir inson. Tergov-chilik davri bilan qo'shib hisoblaganda, huquqni muhofaza qilish organlarida ellik yetti yillik halol mehnati Ubaydulla Mingboyevga yuksak hurmat va sharaf keltirdi. Adolat mezoniga qurilgan umr yo'lidiagi ellik yetti bekating har birida ustoz duolarini olgan shogirdlarning hisobi yo'q. Ustoz umrining yuzinchasi bekatida u kishidan o'z dastxati bilan yangi xizmatga borishim uchun yo'llanma olish baxtila mayassar bo'lay deb Yaratgandan so'rayment... Umringiz uzoq bo'lsin, aziz ustoz!

Sherzod DAMINOV,
O'zbekiston sudyalari
Assotsiatsiyasining matbuot kotibi

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yili 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan
ISSN 2020-7877
9789985784038

Bosh
muhabbir
Aslidin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojlyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rbinoyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'yozmalar taqriz
qilinmaydi va mualifiga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Yorbek Iskandarov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasini hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 4120
Buyurtma – 366

Topshirish vaqtiga – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5